

## **GENDER VOCABULARY AND TERMS: A COMPARATIVE ASPECT**

**Mukhammad Chariyevich CHUTPULATOV**

Vice-Rector for Academic Affairs

Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

## **GENDERGA OID LEKSIKA VA TERMINLAR: CHOG'ISHTIRMA ASPEKT**

**Muxammad Chariyevich CHUTPULATOV**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

## **ГЕНДЕРНАЯ ЛЕКСИКА И ТЕРМИНЫ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АСПЕКТ**

**Мухаммад Чариевич ЧУТПУЛАТОВ**

Проректор по учебной работе

Доктор философии по филологических наукам (PhD)

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

### **For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Chutpulatov M.Ch. Genderga oid leksika va terminlar: chog'ishtirma aspekt // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 71-91.

<https://doi.org/10.36078/1732781840>

**Received:** September 14, 2024

**Accepted:** October 17, 2024

**Published:** October 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** The clarification of the features of gender linguistics, which is part of linguistic, ethnolinguistic, psycholinguistic, pragmalinguistic and linguistic relations between different languages in developed countries is essential. The study aims to study the semantic and linguistic-statistical features of gender vocabulary in English, Russian and Uzbek languages. It states that tracing changes in language and speech provides insight into male and female roles and tasks in particular societies. The end of the XX and beginning of the XXI centuries is considered to be the era of the disappearance of a number of differences between male and female speech. It was found that masculinity and femininity in human social activity in some professions do not essentially differ in gender characteristics, which indicates the emergence and formation of general gender speech and professional activities. "Dictionary of Gender Terms" edited by A.A. Denisova was reviewed based on a scientific-analytical approach to gender characteristics in English, Russian, and Uzbek languages, and the analysis of this dictionary made it possible to identify similarities and differences between gender terms and gender vocabulary.

**Keywords:** gender lexeme; gender linguistics; masculine; feminine; term; gender studies.

**Annotatsiya.** Jahonning rivojlangan davlatlarida turli tillar o'rtasidagi aloqalarning lingvomadaniy, etnolingvistik, psixolingvistik, pragmalingvistik va tilshunoslikning bir qismi bo'lgan gender tilshunosligining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish soha taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillarni belgilashni kun tartibiga qo'yimoqda. Tadqiqotning maqsadi ingliz, rus va o'zbek

tillari gender leksikasi semantik va lingvostatistik xususiyatlarini lingvokonstrativ tadqiq etishdan iborat. Ushbu maqolada zamonaviy ingliz, rus va o'zbek tilli sotsiumlardagi erkak va ayollarning roli, vazifalari haqida tasavvur beruvchi til va nutqqa oid o'zgarishlarni kuzatib borish imkonini berishi aniqlandi. XX asr oxiri va XXI asr boshi erkak hamda ayol nutqi orasidagi qator farqlarning yo'qolish davri hisoblanib, maskulinlik va femininlik ayrim kasblardagi shaxsning ijtimoiy faoliyatida, mohiyatan gender belgilari bo'yicha farqlanmasligi, bu esa umumgender nutqiy va professional faoliyat paydo bo'layotgani hamda shakllanayotganidan darak berishi aniqlandi. A. A. Denisova tahriri ostidagi "Gender atamaları lug'ati" ingliz, rus, o'zbek tillaridagi gender xususiyatlarining ilmiy-tahliliy yondashuvi asosida ko'rib chiqilib, ushbu lug'atni tahlil qilish gender atamaları va gender leksikasi o'rtasidagi o'xshashlik hamda farqlarni aniqlash imkonini berdi.

**Kalit so'zlar:** gender leksemasi; gender tilshunosligi; erkak jinsi; ayol jinsi; atama; gender tadqiqot.

**Аннотация.** Выяснение особенностей гендерной лингвистики, входящей в состав лингвистических, этнолингвистических, психолингвистических, прагмалингвистических и лингвистических отношений между разными языками в развитых странах мира стоит на повестке дня с целью определения важных факторов, обеспечивающих развитие поля. Цель исследования — изучение семантических и лингвостатистических особенностей гендерной лексики английского, русского и узбекского языков. В данной статье установлено, что она позволяет проследить изменения в языке и речи, которые дают представление о ролях и задачах мужчин и женщин в современных англо-, русско- и узбекоязычных обществах. Конец XX и начало XXI века принято считать эпохой исчезновения ряда различий между мужской и женской речью, и было установлено, что мужественность и женственность в социальной активности человека в некоторых профессиях по существу не различаются по гендерным признакам, что свидетельствует о возникновении и формировании общеполовой речи в профессиональной деятельности. «Словарь гендерных терминов» под редакцией А.А. Денисовой был рецензирован на основе научно-аналитического подхода к гендерным характеристикам в английском, русском и узбекском языках, и анализ этого словаря позволил выявить сходства и различия между гендерными терминами и гендерной лексикой.

**Ключевые слова:** гендерная лексема; гендерная лингвистика; мужской род; женский род; термин; гендерные исследования.

## Kirish

Hozirgi vaqtda jahon lingvistikasi gender tadqiqotlari diqqat markazida jamiyatning erkaklar va ayollarga munosabati, shaxsning muayyan jinsga aloqador xulqi, erkaklar va ayollar sifatleri haqidagi milliy-madaniy xususiyatlarga tayangan stereotip tasavvurlar, ya'ni jins muammolarini biologiya sohasidan ijtimoiy hayot va madaniy sohaga o'tkazadigan mavjud barcha madaniy va ijtimoiy omillar yotadi.

Dunyo jamiyatining rivojlangan davlatlarida XX asrning ikkinchi yarmi — XXI asr boshida jahon lingvistikasi ijtimoiy fanlar sohalarida gender muammolari o'ta dolzarb tus olgani bilan ahamiyat kasb etadi.

Lingvistikada gender tadqiqotlari (genderologiya) leksik birliklarning muayyan jinsga tegishligidan kelib chiqib, qoʻllanish spetsifikasi turli tizimdagi tillarga xos nutqda gender leksikasi qoʻllanishida milliy-madaniy spetsifikaning aks etishi ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Turli tizimdagi tillarga xos gender leksikasi tahlili, ayollar va erkaklar oʻzaro munosabatlarida ularning ijtimoiy xulqini belgilab beradigan madaniy xossalar spetsifik yigʻindisida muayyan chegaralarni belgilash hamda ularni oʻchirish (yoki yaqinlashtirish) tadqiqotning dolzarb aspekti sifatida namoyon boʻladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy islohotlar, Oʻzbekiston Respublikasi faol tashqi siyosati, jahon mamlakatlari bilan har taraflama aloqalarning mustahkamlanishi oʻzbek tilining boshqa tillar bilan oʻzaro aloqalari keng qamrovli boʻlishiga olib kelmoqda. Davlat siyosatida ayollarga alohida eʼtibor qaratilib, koʻpchilik rahbar lavozimlariga ayollarning tayinlanishi mamlakatda gender tenglik tamoyillariga amal qilinishiga yaqqol misoldir. Respublika hukumati xorijiy tillarni oʻrgatishni taʼlim siyosatining ustuvor yoʻnalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yoʻnalishda taʼlim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda aholining xorijiy tillarni oʻrganishga boʻlgan qiziqishini oshirish maqsadida aholi orasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish va ularni mukammal oʻzlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratishga alohida eʼtibor qaratmoqda (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, PQ-5117 “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2021-yil 19-may. — URL: <https://lex.uz/docs/-5426736?ONDATE2=06.02.2024&action=compare>). Mazkur yondashuv asosida gender leksikasini istiqbolda oʻrganish tadqiqotga genderni tahlil etish uchun material beruvchi boshqa, masalan, psixolingvistika, etnolingvistika, kognitiv lingvistika, pragmalolingvistika kabi fanlarga oid maʼlumotlarni jalb etishni taqozo etadi. Gender tilshunosligini ham gender stereotiplari koʻrinishida, ham (muloqot ishtirokchilari boʻlgan) kommunikantlar nutqiy xulqi oʻziga xosligida namoyon boʻladigan lingvistik hodisa sifatida koʻrib chiqish erkaklar va ayollar nutqida gender koʻrsatkichlarini aniqlash, shuningdek, milliy-madaniy meʼyorlarni monolingval va qiyosiy tarzda aks ettirish imkonini beradi.

### Asosiy qism

Har bir tilda jamiyatning erkak va ayol qismi — ushbu til sohibiga oid til vositalaridan foydalanishning umumiy va oʻziga xos jihatlari mavjud. Ushbu oʻziga xoslik, bir tomondan, umuminsoniy boʻlsa, ikkinchi tomondan, milliy til jihatlaridir. Aynan ikkinchi tomoni muayyan til sohibi boʻlgan ayol va erkak nutqidagi gender xususiyatlarini belgilab beradi. Gender lingvistikasining mohiyati qardosh va qardosh boʻlmagan tillar materialida gender nutqini tadqiq qilish, bir tillilik asosida taqqoslab va qiyoslab (ikki va koʻp tillilik asosida) oʻrganishdan iborat.

Jins doirasida ijtimoiy va madaniy belgilarga urgʻu beriladigan lingvistikadagi gender tadqiqotlari hozirgi kunda gumanitar, umuman, ijtimoiy yoʻnalishlarda dolzarb hisoblanadi. Gender tavsifining ijtimoiy aspektlari toʻgʻrisidagi tortishuv va dalillar falsafasi tilshunoslik doirasidan

chiqib ketgan, jamoatchilik tomonidan kundalik turmush faktlari sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Masalan, 2017-yil 24-noyabrda Amerikaning “**Washington Post**” va “**New York Post**” nashrlari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari Associated Press’ga havola bergan holda, Shvetsiya lyuteran ibodatxonasi o‘z xizmatchilariga ibodatxonada bajaraladigan amallar vaqtida gender-neytral tildan foydalanishni tavsiya etganligi haqidagi xabarni bosib chiqishdi: The Church of Sweden is urging its clergy to use gender-neutral language when referring to the supreme deity, refraining from using terms like “Lord” and “He” in favor of the less specific “God”.

“Washington Post” va “USA Today” nashrlari xabariga ko‘ra, 2013-yil may oyida Britaniyaning The Guardian nashriga havoladan o‘quvchilar shuni bilib oldilarki, M. Peyjel rahbarligidagi Britaniyaning Riding universiteti (Mark Pagel at the University of Reading in England) tadqiqotchilari ingliz tilida bir necha ming yillikni boshidan kechirgan, lekin bugungi kunda deyarli o‘zgarmagan holda qo‘llanilayotgan so‘zlar (*cognate* deya atalmish, o‘zak so‘zlar yoki proto-so‘zlar — *proto-words*) mavjudligini aniqlashgan, masalan, ular orasida *ona* (*mother*) va *ota* (*father*): “These “ultraconserved words” include some that you might expect (*you, me, mother, father, man*) <...>. Over the centuries, the words have retained the same meaning and almost the same sound, the *Washington Post* reports”. — (Эти «законсервированные слова» включают в себя некоторые из них, которые вы ожидали (*ты, я (мне), мат, отец, человек* (мужчина)) ... За столетия эти слова сохранили свои значения и почти то же самое звучание, сообщает *Вашингтон Пост*) (12).

Bu kabi xabarlar shundan dalolat beradiki, gender belgilari bo‘yicha tushunchalar nominatsiyasi inson nutqi, inson sivilizatsiyasi, jamiyat bo‘g‘ini taraqqiyoti davridan boshlab, qadimiy Homosapiens nafaqat o‘z atrofidagi bo‘shliqni, balki uni dunyoga keltirgan ayol, unga hayot bag‘ishlagan erkakni farqlash uchun so‘zlar ixtiro qilib, qardoshlik aloqalarini farqlashga harakat qilgan vaqtdan boshlangan. Inson mavjudligining ushbu bosqichidan beri gender differensiyasi jarayonlari jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayotiga integrallashgan holda jadal rivojlanishda davom etmoqda. Masalan, I. I. Skachkova xorijiy nazariy tilshunoslikdagi gender masalalariga bag‘ishlangan ishida erkak jinsining (мужской род) ingliz jamiyatining taraqqiy etish jarayonidagi xurofotning mavjudligi bilan tarixan bog‘liqligi asosida zamonaviy ingliz tilidagi gender belgilarini qayta ko‘rib chiqish uchun ayrim tilshunoslarning fikrlari haqida yozadi. Xususan, jins belgilariga ega so‘z “*man*” (erkak) so‘zini umumlashtiruvchi leksema bilan almashtirish taklif etildi: *chairman* o‘rniga *chairperson, chair, mediator, coordinator, manpower* o‘rniga *workforce, personnel, the staff, the workers* (30). A. A. Grigoryan o‘zining “XX asr oxiri — XXI asr boshlarida G‘arbdagi gender lingvistikasining holati va istiqboli” mavzusidagi ishida lingvistik apparat yordamida gender farqlarini niqoblash kampaniyasining intensivligini ko‘rsatib o‘tadi, bunda tilning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda jinsiy (seksist) shakllarni gender-neytral yoki gender-teng shakllar bilan almashtirish (masalan, yuqorida keltirilgan OAVlar misollaridagi oliy kuchlarga gender-neytral tarzda murojaat qilish); ayrim asosiy kalit

soʻzlarni isloh qilish (boshqacha yozish va talaffuz qilish orqali) (21, 29) kabi yoʻnalishlar beriladi.

1968-yilda psixolog Robert Stoller erkak va ayolni tabiiy ravishda farqlashning biologik bazasi sifatida “*erkak*” (*maskulin*) va “*ayol*” (*feminin*)ning ijtimoiy-madaniy tavsiflarini farqlashda ilk bor ushbu iboradan foydalangan (13). Masala shundaki, dastlab “gender” grammatik nuqtayi nazardan “*jins*” va “*gender*”, biologik nuqtayi nazardan “*jins*” tushunchasidagi chalkashlik ingliz tilidagi “*gender*” soʻzini rus tiliga tarjima qilishda qiyinchilikni yuzaga keltirdi, chunki grammatik va biologik jinsni farqlash uchun ingliz tilida uning leksik analogi “*sex*” soʻzi ham mavjud, har ikkala soʻz ham ingliz tilidan rus tiliga “*пол*” (“*jins*”) deya tarjima qilinadi.

A. G. Kirova kuzatuvlari natijasida aksariyat tadqiqotchilar tomonidan “gender” tushunchasining tan olinishiga qaramasdan, maxsus adabiyotlarni oʻrganishda genderni tushunishdagi farqlar, ushbu tushunchaning nisbatan yangiligi va “*пол*” (“*jins*”) va “*gender*” tushunchalarining differensiyasi bilan bogʻliq qiyinchiliklar yuzaga kelishini koʻrsatib oʻtadi (24, 138). E. S. Zinoveva ham ayrim tadqiqotlarda genderning “*пол*” (“*jins*”) tushunchasining sinonimi sifatida oʻrganilganligini aytib oʻtadi (22).

Hozirgi kunda hamon “*пол*” (“*jins*”) va “*gender*” tushunchalarini qoʻllashda sezilarli farq mavjud. O. E. Ryabov yozishicha, “*пол*” (“*jins*”) iborasini “*erkak*” va “*ayol*” maʼnosida tushunish kerak, “gender” iborasini esa “*erkaklik*” va “*ayollik*” iboralari bilan ifodalash mumkin (29, 492). Demak, “gender” tushunchasi bilan ishlashda erkaklar yoki ayollar qanday gapirishi emas, balki ular nutqiy matnni qanday tuzishi va bu nutq vositalar orqali muloqotning muvaffaqiyatli yoki aksincha chiqishi taʼsiriga eʼtibor qaratish lozim. Gender belgilarini loyihalashtirish uchun til qanday vositalarga ega ekanligi, vaziyatli diskurs loyihasi qanday yaratilishi (4), qaysi qoʻshimcha va lingvistik omillar ushbu jarayonga taʼsir koʻrsata olishiga eʼtibor qaratish lozim (23).

Feminizm nazariyasi va amaliyoti, yangi ilmiy yoʻnalish sifatida gender tilshunosligi paydo boʻlishiga turtki boʻlgan feministik lingvistika, birinchi navbatda, falsafa, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, tarix, sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, lingvistika vakillarining ayol roliga munosabati bilan bogʻliq boʻlgan fanlararo xarakterga ega.

R. Lakoff tilga oid, yaqqol namoyon boʻladigan quyidagi faktlarga ham eʼtibor qaratadi: ayollar nutqda hissiyotlarning kuchli ifodasidan chekinishadi, trivial (oʻta sodda) hisoblangan predmetga nisbatan noaniqlikni ifodalashga urgʻu berishadi, *ayollar haqidagi* nutqda esa seksual tabiati evfemizmni talab etadigan, ijtimoiy roli yaratiladigan va erkaklarga nisbatan tobe obyekt nazarda tutiladi. Shu tariqa, ayollarning shaxsiy identifikatsiyasi, R. Lakoffning fikricha, lingvistik jihatdan ustunlikka intilish til jihatdan individual hayotiy qarashlarga ega shaxs sifatida jiddiy qabul qilinadigan ayollarga qarshi yoʻnaltirilgan edi (8, 45). Bugungi kunga kelib, ushbu fikrga yapon tili yaqqol misol boʻla oladi. Yapon tilida azaldan jinslarning jamiyatdagi roli boʻlinishi bilan izohlanadigan, insonning taxminan uch yoshigacha shakllanib boʻladigan muomala usuli “*ayolcha*” (*onnarashiy*) va “*erkakcha*” (*otokarashiy*)ga boʻlingan. Shu bilan birga, bunday farq, asosan, kundalik ogʻzaki nutqda



uchraydi, mulozamat ko‘rinishidagi muomalada deyarli ishlatilmaydi, yozma shaklda esa mutlaqo qo‘llanilmaydi. “*Erkakcha*” qo‘llanmalar va so‘zlar qo‘pol, vulgar, keskin hisoblanadi, ayollar nutqi esa, aksincha, muloyim shakllardan tez-tez foydalanish natijasida, so‘roq qismlari va hurmatni ifodalaydigan qo‘shimchalar yordamida anchagina sermulozamat, hurmatga yo‘g‘rilgan, yumshoq chiqadi. Muayyan til doirasida erkaklar va ayollar tilining bunday o‘ziga xos xususiyatlari, fonetika, leksika, grammatika va uslub bilan birgalikda “genderlekt” nomini oldi (25, 32).

R. Lakoff g‘oyasi ko‘plab ilmiy izlanish va muhokamalarga sabab bo‘ldi, aniq lingvistik vazifalarni belgilab olish imkonini yaratdi. Misol tariqasida aytish mumkinki, Dyubua va Krauch singari tadqiqotchilar ayollar nutqida tasdiq-so‘roq gaplar yetakchi ekanligiga e‘tibor qaratishadi. D. Uest va K. Simmermanlar suhbat chog‘ida har ikki jins vakillari bir-birlarining fikrlarini bo‘lishlariga oid muammoni ko‘rib chiqishadi.

Bahs va munozaralar, asosan, R. Lakoff tomonidan ilgari surilgan ikki xil postulatga tegishli:

1. Erkaklar va ayollar faqat o‘z jinslariga xos bo‘lgan, farqli xususiyat bo‘lgan nutqqa ega.

2. Erkaklar va ayollar nutqidagi farq erkaklarning jamiyatdagi ustunligi natijasida yuzaga kelgan (8). Bu belgi, ayni vaqtda, mazkur nomutanosiblikning asosi hisoblanadi. Vaqt o‘tishi bilan ko‘rsatib o‘tilgan ikki xil yondashuv mustaqil yo‘nalishlar sifatida shakllanadi hamda hukmronlik va differentsiatsiya (*dominance and difference*) nomli ikki xil nazariya yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. “Hukmronlik” yondashuvi tarafdori bo‘lgan olimlar erkaklar va ayollarning turli nutqqa ega bo‘lishi ular orasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liq farqlarning tilga ta‘siri oqibati, deb taxmin qiladilar (8).

D. Mals va R. Brokerlar ortidan hukmronlik yondashuvini yoqlagan Debora Tonnening fikricha, o‘g‘il bolalar va qizlar xos madaniyatning turli ko‘rinishlari sharoitida ulg‘ayishadi, deb faraz qilinadi. Buning natijasida ularda o‘zaro munosabatlardagi umumiy tilning turli darajada namoyon bo‘ladigan shakllari, ya‘ni fikr almashish usullari jamlanadi. Bunday yondashuvni, birinchi navbatda, antropologiya kuchli ta‘sir ko‘rsatadigan ijtimoiy fanlarning ayrim turlarida ko‘rish mumkin. Umuman, taniqli feministik til bilimdonlaridan biri D. Kameron Amerika lingvistikasi, avvalambor, filologiyaning qizi emas, balki sotsiologiyaning kenja qizidir deb ta‘kidlaydi (3).

“Hukmronlik” yondashuvi vakillarining ta‘kidlashicha, erkaklar va ayollar nutqi orasidagi farqlar, birinchidan, erkaklarning real hayotdagi ustunligi natijasi, ikkinchidan, bunday farqlanish ayolning aniq faoliyati (hayoti)da erkak xuddi uning qalqoni, himoyachisi sifatida ishtirok etishi bilan asoslanadi. Bu yo‘nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida D. Spenderning “Erkak tilni yaratdi” (“Man made language”) nomli asarini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz (11, 176).

A. G. Kirova “Gender atamaları lug‘ati”da keltirilgan androsentrizmning belgilariga umuminsoniy subyektivlikni yagona erkaklar me‘yorlariga uyg‘unlashtiruvchi va universal obyektivlik tarzida taqdim etuvchi chuqur madaniy an‘ana sifatida tayandi. U o‘z ishida

jahonning deyarli barcha tillarini *androsentrik* deb ko'rsatadi. Bu bilan jamiyatning ijtimoiy va madaniy o'ziga xosligi tarkibidagi erkak hukmronligi, erkakning ko'proq qadrlanishi va xususiy faoliyat sohasida ayollarning cheklanishini aks ettiradi (24).

Dunyo tillari manzarasi androsentrikligi asosini, bizningcha, Homo Sapiens faoliyatining jamoaviy ongsiz jamiyat K. Yung tomonidan 1916-yil "Ongsizlik strukturasi" maqolasida keltirilgan atamada aks etadigan, o'xshashini biz afsonalarda uchratadigan kognitiv vakilligi tashkil etadi. Y. V. Vishnyakova afsona dunyo qurilishining mukammal modeli va kishilarning real, shu jumladan, genderga xos xulqi asosi sifatida xizmat qiladi, mifologik o'lcham har qanday madaniyatda mavjud, mifologik obraz va stereotiplar inson ruhining ongsiz asoslarida asrlar davomida shakllangan va namoyon bo'lgan universal arxetiplar ko'rinishida ildiz otgan, degan fikrlarni keltirib o'tadi (15). Illyustrasiya sifatida ko'plab xalqlar madaniyatida uchraydigan erkak va ayol jinsi qabilasi (xalqi)ning afsonaviy naslboshi juftligini aytish mumkin. Bunda ularning o'zi xudo (yaratuvchi) bo'lganmi yoki xudolar tomonidan yaratilganmi, muhim emas: Devkalion va Pirra qadimgi yunon mifologiyasida, Idzanagi va Idzanami yaponlarda, Ask va Embla qadimiy Germaniyada, Adam va Eva Bibliyada. Shunisi diqqatga sazovorki, juftlikning nomlanishida doimo erkak naslboshining ismi birinchi turadi. Bu orqali A. V. Kirillining erkak kuch-qudrat, faollik ahamiyatiga ega bo'lgan bir paytda, ayolning xususiyati sust, bo'ysunuvchan sifat kasb etgani to'g'risidagi fikrlari dolzarflik kasb etadi (23).

Binobarin, universal arxetiplarga asoslangan gender stereotiplari nutqda turg'un shakl va tushunchalar hisoblanadi, deya faraz qilish xato bo'lar edi. M. V. Garanovichning yozishicha, gender stereotiplari so'zlovchining ijtimoiy parametrlaridan kelib chiqib namoyon bo'ladi, gender stereotiplari turlarining quyidagi belgilarini ko'rsatadi: maskulinlik/femininlik stereotiplari — tilda aks etgan va jamiyat, ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy-madaniy jamiyatning barcha vakillari uchun universal hisoblanmaydigan alohida individlar til ongida shakllangan xulqning ijtimoiy-psixologik parametr hamda erkaklar va ayollarning xarakterli belgilari haqidagi baholovchi tasavvurlar; erkaklar/ayollar nutq xulqiga oid stereotiplar — jamiyat, ijtimoiy guruhlar va alohida individlar til ongida faoliyat ko'rsatuvchi erkak/ayol nutq xulqini muayyan baholovchi obraz (17, 8).

Xullas, gender lingvistikasining yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi anchagina vaqt oldi, o'ziga xos rivojlanish bosqichlari bilan ta'riflanadi. A. V. Kirillina va M. Tomskoylardan keyin S. S. Golubeva va E. S. Zinovevalar lingvistik gender izlanishlari shakllanishining quyidagi uch bosqichini ajratib ko'rsatishdi:

— alarmistik — ijtimoiy tizimlarning gender jihatdan identifikligi shakllanishi, til birliklari va so'zlayotgan shaxs munosabatlaridagi rolini o'rganish;

— feministik konseptualizasiya — "feministik lingvistika" tushunchasi yuzaga kelganda feministik nazariya va amaliyotda aniq fikrlarni ishlab chiqish davri;

— feministikdan keyingi — genderni madaniyatlararo va lingvomadaniy, ko‘p sonli tillar materiali orqali hamda uslubiy masalalarni yangicha anglash bilan tadqiq qilish aspektida feministik lingvistika oqimida ishlab chiqilgan g‘oya va uslublarni tekshirib, qayta angelaydi (19, 4-5).

Bu borada, xorijiy lingvistikada erkaklarning gender identifikatsiyasi va uning tilda aks etishi bilan bog‘liq dolzarb ishlar yuzaga kelishi xarakterlidir. A. V. Kirillinning ta‘kidlashicha, bunga xuddi erkaklik kabi ayollik ham dinamik, tarixiy o‘zgaruvchan ekanligi fakti asos bo‘lgan (23, 37). R. Konnel tomonidan “madaniy reprezentatsiya” tushunchasi kiritiladi, uning doirasida erkaklik va ayollik ko‘p sonli binar muxolifat holatlardan iborat ko‘p o‘lchamli konsept hisoblanadi (5).

Rivojlanishning bu bosqichida gender tadqiqotlari terminologik apparat, hatto, yo‘nalish ichidagi yo‘nalishlar bilan mustahkamlangan mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida rasmiylashtirilib bo‘linganligini ta‘kidlab o‘tish muhim. Masalan, V. V. Potapovdan so‘ng A. G. Kirova gender tadqiqotlari yo‘nalishlarining quyidagi variantlarini ajratib ko‘rsatadi:

— til darajalari — fonetika, morfologiya, semantika va sintaksisning muayyan farqlari, shuningdek, ayollar va erkaklarning anglashida verbal stereotiplardagi farqlarni aniqlash;

— jamiyatda ijtimoiy funksiyalarning qayta taqsimlanishidagi o‘ziga xosliklar orqali tushuniladigan semantik farqlarni aniqlash — qat‘iy, gender pozitsiyalaridan turib, ayollar va erkaklar tilining ijtimoiy tabiati bilan bog‘liq holdagi yondashuv;

— ayol va erkak tili ayollar va erkaklar xulqidagi o‘ziga xosliklar bilan qo‘shilib ketadigan psixolingvistik nazariyalar qurilishi;

— aniqlangan ko‘rsatkichlarni kognitiv tushuntirish, bu holatda nafaqat farqlarning tez-tez uchrashini (chastotasini) aniqlash, balki dunyo manzarasining turli aspektlari bilan aloqalar o‘rnatish ham muhim hisoblanadi (28).

Gender tadqiqotlariga doir elementlar turli tarixiy davrlar doirasida uchraydi, ya‘ni gender tadqiqotlariga nisbatan, ayniqsa, u yoki bu darajadagi ayollar harakati, deb nomlash mumkin bo‘lgan doiradagi tendensiya doimo mavjud bo‘lgan. Shunga qaramasdan, uning ilmiy tendensiya, ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi aynan XX asrda ro‘y berdi.

Gender lingvistikasi sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar keng ko‘lamliligi bilan ajralib turadi, chunki ular turfa xil madaniy va til materiallari asosida olib boriladi, umuminsoniy, ya‘ni universal yondashuvlar, qarashlar, ilmiy nuqtayi nazarlar bilan xarakterlanadi. Ular jamiyatlar, xalqlar, millatlarning tarixiy, sotsial-madaniy, milliy an‘analar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan, shu orqali erkak va ayolning ham oila (jamiyat qo‘rg‘oni)da, ham jamiyat (ijtimoiy faoliyat)dagi rolini belgilab bergan milliy hamda mintaqaviy tasnifi bilan shartlanadigan mavjud o‘ziga xosliklar (farqlar)ga ham ega.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida inson hayotining jinslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabati, ya‘ni gender, feminizm kabi muammolarga katta ahamiyat qaratiladi (16). Ushbu muammolar borgan sari ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, ilmiy nuqtayi nazardan dolzarb tus



olmoqda. Bu holat, birinchi navbatda, inson hayotining deyarli barcha sohalari, shu jumladan, oila, naslning davom ettirilishi, erkaklar va ayollar teng huquqliligi, ayollarning huquq va majburiyatlari, ayollar bandligi, ayollarning davlat xizmatlaridagi ishtiroki kabi aspekt va sotsiumlarning boshqa qator muhim sohalari jadal sur'atlarda rivojlanib borayotganligi bilan bog'liq (10).

Gender atamashunosligi tahlili, differentsiatsiyasi va turkumlashuvi bugungi kunda qator ilmiy yo'nalishlar, shu jumladan, til bilishga taalluqli bo'lgan inson, tabiat va boshqa unsurlar hayotiga aloqador dolzarb ilmiy vazifaga aylangan, chunki hamma narsa so'z, xususan, ilmiy atamalar bilan ifodalanadi, atamalarning maxsus sohalari (ilm yo'nalishlari) bo'yicha tasniflashuvi esa fan darajasini, jamiyat tizimining muayyan tarixiy bosqichidagi rivojini aks ettiradi (20). Masalaning mohiyati shundaki, muayyan atama tizimdan tashqarida ishlamaydi, ammo o'z tizimidagi boshqa atamalar qatori terminlar tizimi doirasida faoliyat ko'rsatadi (2, 25).

Terminologiya va umumadabiy til o'rtasidagi o'zaro munosabatlar chegarasi harakatchan, o'zgaruvchan va leksik birlik terminalizatsiyaga aylanishi, atama esa banalizatsiyaga, ya'ni umumadabiy so'zlar qatoriga o'tishi mumkin, atamashunoslikda esa bugungi kunda atama va leksika o'rtasidagi munosabatga nisbatan quyidagi pozitsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin (32):

1) Termin — leksik birlik (so'z)ka qarshi qo'yilgan va alohida me'yorlashishga, ishlab chiqarish zarurati va tegishli turkum talablari tufayli umumiy leksika tizimidan ajralib chiqishga mahkum alohida birlik. Demak, atamalar, ularning tilosti doirasidagi tizimlashuvi, tuzilish modeli adabiy tilning umumiy qo'llanishidan alohida ajralib turadi (2, 25).

2) Terminoleksika — umumadabiy tilning so'z kabi fonetik, morfologik, grammatik, grafik xususiyatlarga ega bo'lgan qismi; terminosistema va umumadabiy til leksikasi orasida doimiy almashinuv ro'y berib turadi, natijada, leksik birlik terminga, termin esa leksik birlikka aylanadi.

Shu tariqa atamalarning umumiy qo'llanuvchi leksika bilan bog'liqligi farqlanuvchan: ayrim atamalar, ular keng qo'llanilishi tufayli termin sifatida anglashilmasligi mumkin, masalan, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi mutaxassislar tiliga oid kriminal va professional terminlar kabi. Zero, jinoiy guruh, **tergov**, **stvol**, **o'qotar**, **qidiruv** singari bunday atamalar detektiv seriallar, kinofilmlar orqali bevosita xalq ichiga kirib boradi. Ayrimlari kamroq ommalashgan, biroq xos tabaqaga ma'lum bo'lgan va shu doirada ishlatiladigan, uchinchi guruhga taalluqlilari esa juda tor doirada, faqat mutaxassislar tomonidan qo'llaniladigan terminlardir. Atama bilan anglashiladigan qo'llanilish darajasi, tushunchaning ilmiyligi, asosan, uning qay darajada keng yoki tor doirada qo'llanilishida ayon bo'ladi.

Gender lingvistikasidek murakkab fanlararo ilmiy hodisada "**terminologiya**" va "**leksika**" tushunchalari orasidagi chegarani anglashda o'z-o'zidan gender atamalari va gender leksikasi orasidagi o'xshashlik hamda farqlar nimada degan savol tug'iladi. Masalaning mohiyati shundaki, leksik birliklarning gender yondashuvi nuqtayi nazaridan qo'llanilishi hali ular (leksik birliklar)ning gender leksikasi ekanligini, ya'ni

tibbiyot yoki sosiologiya yoxud lingvistika vakili nuqtayi nazaridan gender atamaları va gender leksikasi sifatida birdek qo'llanilishi mumkin bo'lgan maxsus leksika ekanligini anglatmaydi. Gender leksikasi, masalan, ingliz tilini rus tili bilan, rus tilini o'zbek tili bilan, ingliz tilini o'zbek tili bilan qiyosiy tahlil qilish uchun uni umumiy qabul qilingan leksikadan ajratadi, natijada tillar orasidagi turfa o'xshashlik va farqlar yuzaga chiqadi. Ingliz va rus tillarida odatiy bo'lgan “**brother-sister**” — «**брат-сестра**» turdoshlik markerlari qarindoshlik darajalari an'anaviy tarzda murakkab oilaviy ierarxiya an'alariga asoslangan davlatlar tillarida mutlaqo o'zgacha manzara kasb etadi. Masalan, yapon yoki o'zbek tilida yuqoridagi mazmunni birgina “**aka**” yoki “**opa**” so'zi bilan ifodalab bo'lmaydi, ya'ni “**старший брат**” o'zbek tilida “**aka**”, yaponchada “**ani**” yoki “**младший брат**” o'zbek tilida “**uka**”, yapon tilida “**otooto**”, “**старшая сестра**” o'zbekchada “**opa**”, yapon tilida “**ane**” yoki “**младшая сестра**” yaponchada “**imooto**”, o'zbek tilida “**singil**” tarzida qo'llanadi (27). Yapon va o'zbek tillaridagi oilaviy munosabatlar ierarxizatsiyasiga oid o'xshashliklar shu yerda tugaydi va farqlar boshlanadi: yapon tilida boshqa odamning aka-opa yoki uka-singlisiga alohida hurmatni ifodalovchi leksika mavjud: “**oniisan**” — “**aka**” (o'zganing akasi) yoki “**oototosan**” — “**uka**” (o'zganing ukasi); “**oneesan**” — “**opa**” (o'zganing opasi) yoki “**imootosan**” — “**singil**” (o'zganing singlisi) (27). O'zbek tilida esa o'zi va o'zganing yaqin qarindoshlari o'rtasidagi differentsiatsiya o'zgaras fonetik so'zlar bilangina chegaralanadi, faqat so'z qaratilgan shaxsning ismiga qaratqich kelishigi qo'shimchasi **-ning** qo'shiladi: Alisherning**aka/uka/opa/singlisi**.

Har qanday tilda dunyoning mental manzarasi aks etishini, qiyosiy tahlil — metod esa dunyoviy til manzarasida namoyon bo'ladigan tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlab berishini hisobga oladigan bo'lsak, lingvistikaga “gender leksikasi” tushunchasining kiritilishi, uning mazkur yo'nalish doirasidagi terminlashuvi tabiiy jarayon ekanligi oydinlashadi.

“Gender” atamasiga nisbatan “ilmiy definitya” tushunchasini tatbiq etishga bo'lgan dastlabki urinishlardan biri sifatida gender biologik jinsni jamiyat faoliyati predmeti sifatida muvofiqlashtirib turadigan moslashuvlar majmuasi, deb atagan antropolog G. S. Rubinning ishini keltirish mumkin (6).

Amerikalik sotsiolog E. Giddens o'tgan asrning 80-yillari oxirida “gender” atamasi definityasida “jins” va “gender” tushunchalari o'rtasidagi chegaraning fundamentalligini ifodalab ekan, ayol va erkak o'rtasidagi farqlar tabiatiga ko'ra, biologik bo'lmagan sabablar bilan asoslanishini ta'kidlaydi. Ya'ni, shaxs jinsi biologik (jismoniy va tanadagi farqlar) jihatdan aniqlansa, tur (gender) madaniy va ijtimoiy ahamiyat (psixologik, ijtimoiy va madaniy farqlar)ga ega bo'ladi. Xullas, E. Giddens ikki jins (ayol va erkak) hamda ikki tur (ayollik va erkaklik)ni ajratib ko'rsatadi (18, 153).

A. V. Kirilina va V. Tomskayalar genderni quyidagicha ifodalaydilar: a) jinsning ijtimoiy-madaniy vazifalarini aniqlab, uni biologik vazifalardan farqlaydigan ilmiy definitya; b) ijtimoiy konstrukt, uning doirasida ijtimoiy tartib sifatida ayol va erkak toifasi haqidagi tasavvur jonlanadi (23, 47).

“Gender” atamasi bilan birga keng tarqalgan “*gender stereotipi*” atamasini V. V. Krasnix “*Ayol va erkakning sotsiumdagi rollariga oid munosabatning biologik va ijtimoiy qatori*”, deya ifodalaydi. Bunda u til shaxsi ongida dunyo manzarasining tipik qismi aks etishi natijasida namoyon bo‘ladigan atrof-muhit fragmenti sifatidagi “stereotip” atamasi traktovkasiga tayanadi (26, 138).

Har bir tilning gender leksikasi bir til ichida va jahonning barcha tillarida umumiy va spetsifik xususiyatga ega bo‘lgan leksik-semantik guruhlar (LSG)ga bo‘linadi, chunki leksika va nutqning gender aspekti umumtil hodisasi hisoblanadi. Gender lingvistikasida, fanning til haqidagi boshqa sohalarida bo‘lgani kabi gender leksikasi va gender atamalari, ya’ni terminlar tizimini farqlash lozim. Bu, yuqorida aytib o‘tganimizdek, barcha gender til birliklari ilmiy termin bo‘la olmasligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy rus tilida gender sohasi o‘z terminologik tizimlashuviga “Gender terminlari lug‘ati” nashr etilgandan so‘ng ega bo‘ldi.

Mazkur lug‘at “...208 ta termin, mavjud hollarda uning sinonim variantlari, definitsiya yoki tushunchaning yozma xarakteristikasi, izoh matni, tegishli ingliz tilidagi terminlarni o‘z ichiga olgan to‘liq matnli so‘z maqolasi”dan iborat (...). Shuningdek, mazkur terminlar ahamiyatini u yoki bu shaklda ochib beradigan bitta yoki bir nechta to‘liq matnli moddalarga havola qilingan “bo‘sh” so‘z maqolalarining 170 ta terminini o‘z ichiga olgan (31, 5). Lug‘atda 378 ta so‘z maqolasi mavjud. Lug‘atning kirish qismi mundarijasiga muvofiq, terminlarni tanlab olishda ularning “ma’rifiy potentsiali, tushunchasi darajasi”, “umuman, tushunishning “gender” tushunchasi tizimi uchun muhimlik darajasi”, “professional nutqda mustahkamlanganligi” kabi jihatlari inobatga olingan. Termin birliklarini tanlash gender tematikasiga oid ilmiy va o‘quv matnlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saralab olish mualliflar tavsiyalari orqali amalga oshirilgan (31, 4-5). Muayyan tushuncha bir necha sinonim terminlar bilan ifodalangan hollarda ustunlik “ortiqcha assotsiatsiya” qo‘zg‘amaydigan atama tomonida bo‘ladi. Masalan, “jinsiy belgi”, “jinsning belgisi”, femininlik, feminlik, ayollik singari so‘zlardan iborat terminologik sinonim qatoridan semantik tadqiqot natijalariga ko‘ra shaxs va jamiyat ongida “aldamchi biologik kontekst” keltirib chiqaruvchi “jinsiy belgi” tibbiy-biologik atamasi bilan ortiqcha assotsiatsiya tug‘dirmaydigan termin tanlanadi. Shuning uchun lug‘atda “boshqa termin — “jinsning belgisi” qo‘llashga urinilgan...” (31, 5-6).

Shunday qilib, kitobning kirish qismi (“Muharrirdan”)da uning tuzilmasi haqida so‘z boradi. Lug‘at 242 betdan iborat (31).

Atamalarning so‘z maqolalari an’anaviy lug‘at shaklida alifbo tartibida (har bir atamaning bosh harfi bilan) berilgan. Shu bois, so‘z maqolalari va alifboning har bir harfi bo‘yicha alohida moddalar hajmi turlicha. Masalan, “Г” harfiga (31). 89 ta so‘z maqolasi, “Я” harfiga esa 1 ta so‘z maqolasi to‘g‘ri keladi (31, 248). Ya’ni, “Г” bilan boshlanadigan gender atamalari soni lug‘atda eng ko‘p, “Я” bilan boshlanadigan esa eng kam. “Г” bilan boshlanadigan atamalarning 89 ta so‘z maqolasidan 67 tasi “gender” so‘zi, 22 tasi boshqa so‘zlar bilan boshlanadi. “Г” bilan boshlanadigan atamalarning 89 ta so‘z maqolasidan 52 tasi to‘liq matnli, 27 tasi “bo‘sh” so‘z maqolasidir. Masalan:

- 1) egalitarlik (Qarang. Jinslar tengligi) (31, 245);

2) kiborg (Qarang. Jins siyosati, kiberfeminizm) (31, 128).

To‘liq matnli so‘z maqolalarining hajmi turlicha. Masalan, “gender” atamasi so‘z maqolasi hajmi 5 bet, “empatiya” atamasi so‘z maqolasi esa birgina xatboshidan iborat. To‘liq matnli so‘z maqolalari hajmi bilan bog‘liq bunday farqni, tushuncha va muayyan atamaning tarqalish darajasi, shakllanish tarixi, ijtimoiy ahamiyati, ilmiy ishlab chiqilishi va boshqa jihatlar bilan izohlash mumkin.

Har bir so‘z maqolasidan so‘ng, faqat ayrim hollargina bundan mustasno, mazkur muammoga oid ilmiy adabiyot keltirilgan. Bu, qoidaga ko‘ra, ensiklopedik lug‘atga xos. Shu ma’noda, ushbu lug‘at o‘zida, bir tomondan, terminologik, ikkinchi tomondan, ensiklopedik lug‘atlar tuzish tamoyil va o‘lchamlarini jamlagan.

Lug‘atda terminlarga o‘xshamaydigan atamalar kiritilgan. Masalan, **faollik**. Ushbu atamaga oid moddadan terminologik so‘zlarning lug‘at qismi boshlanadi. Mazkur so‘z maqolasini birlamchi qabul qilishda mazkur atamada gender konnotatsiyasi aniqlanmaydi. Aslida ushbu atama (ya’ni, faollik) haqiqatan ham gender tilshunosligiga aloqador, o‘z-o‘zidan uni genderolingvistika atamasi sifatida ham ko‘rish mumkin. so‘z maqolasida esa “faollik” termini gender aspektida keltirilmagan: “...siyosiy partiya, ta’sir guruhi yoki turdosh siyosiy tashkilotdagi faol a’zolik... Tadqiqotlar faollar uchun umumiy bo‘lgan tendensiyalarni aniqlab berdi: nisbatan baland ijtimoiy mavqe, katta ijtimoiy ishonch va ko‘pincha kuchli axborotga egalik...” (31, 7).

“Faollik” atamasining bunday izohlanishi umumilmiy hisoblanadi, izohli, terminologik kabi boshqa lug‘atlarda ham, masalan, pedagogika, til o‘rgatish metodikasi, jismoniy madaniyat, falsafaga oid, rus tili va boshqa tillarning izohli lug‘atida, ikki tilli lug‘atlarda ko‘zga tashlanadi. Agarda, so‘z maqolasi mualliflari ushbu atama mazmunini erkak va ayolning u yoki bu siyosiy partiyalar, guruhlar, jamoat tadbirlaridagi faollik bilan to‘ldirganlarida gender mundarijasiga ega bo‘lgan bo‘lardir. Shunday qilib, “faollik” atamasi — mejdissiplinar termin. Shuning uchun ham mazkur atamaning so‘z maqolasi tayyorlanayotganda u ilmiy yo‘nalishga tegishlilik nuqtayi nazaridan aniq izoh berilishi lozim.

Gender atamalari etimologiyasi (grek, lotin, roman, german va h.k.) so‘z maqolalarida keltirilmagan, atamaning donor tildan olinganligi, vositachi til orqali yuzaga kelganligi haqidagi ma’lumotlar ham yo‘q.

Hajmiga nisbatan ikkinchi katta so‘z maqolasi — amazonkalar (31). Amazonka so‘zi ko‘plikda ifodalangan. Rus tilining “Katta izohli lug‘ati”da bu so‘z birlikda keltirilgan (14, 36). 15 tomlik “Qazak edebi tilinin sozidigi” (QETS, Qozoq adabiy tili lug‘ati)ning 1-tomida bu so‘z ko‘plikda, “amazonkalar” tarzida kelgan. Xullas, ushbu so‘z-atamaning taqdimoti zamonaviy leksikografik nashrlarda goh birlikda, goh ko‘plikda ifodalangan. Bizningcha, “Gender atamalar lug‘ati”da bu so‘z birlikda ishlatilishi, qavs ichida esa ko‘plikdagi shakli berilishi zarur. Zero, lingeografik nashrlar uchun aynan shu usul qoida hisoblanadi.

Soniga nisbatan navbatdagi o‘rinni “feminizm” so‘zi bilan bog‘liq atamalar egallaydi (31). Hammasi bo‘lib 31 ta so‘z maqolasidan iborat. Shulardan 20 tasi to‘liq matnli, 11 tasi boshqa so‘z maqolalariga havola berilgan “bo‘sh” so‘z maqolalari. Eng hajmi kattasi “Feministik antropologiya” so‘z maqolasidir. Uning hajmi ikki yarim bet (31).

Hajmi katta soʻz maqolalari mundarijasi poliaspekt sanaladi. Ularda tushunchaning paydo boʻlish tarixi, uning gender lingvistikasi, gender munosabatlari tarixi batafsil yozilgan.

Masalan, “*Feminizm*” soʻz maqolasida quyidagilar aks etgan:

- a) tushuncha va atamaning kelib chiqishi;
- b) ushbu soʻzning ilk bor 1895-yili Elis Rossi tomonidan qoʻllanganligi;
- c) feminizmning koʻpincha ayollarning erkinlikka intilish yoʻlidagi harakatlari asnosida paydo boʻlgan jinslar tengligi nazariyasi sifatida tushunilishi;
- d) bu soʻz keng maʼnoda — ayollar harakati, yaʼni ayollar huquqini himoya qilish harakati maʼnosida qabul qilinishi;
- e) feminizm bosqichlari haqidagi maʼlumot — jinslar (ayollar va erkaklar)ning amaldagi tengligi uchun kurash, Amerikada, Yevropada;
- f) feminizm paydo boʻlishining sinfiy xususiyati haqida Gʻarbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada oʻrta sinf oq tanli ayolining kurashi;
- g) feminizmning madaniy asoslari haqidagi maʼlumot;
- h) feminizmning asosiy maqsadi — ayolning “*sukut qobigʻi*”dan chiqarish ekanining belgilab berilishi;
- i) feminizm yoʻnalishlari — anarxofeminizm, konservativ feminizm, gumanistik feminizm, burjua feminizmi, radikal feminizm, “qora” feminizm, ekofeminizm, kiberfeminizm va hokazolarning belgilab berilishi;
- j) “madaniyatning patriarxal turiga taalluqli qator yashirin omillarni tanqidiy ruhda tushunmaslik” haqida soʻz borishi;
- k) mehnatning boʻlinishi (erkaklar va ayollar mehnati) bilan bogʻliq ayrim turlar haqida soʻz borishi.

Birgina soʻz maqolasida feminizm mavzusi boʻyicha tarix va bugungi kun, madaniyat, siyosat, sotsiologiya, shaxsiy va jamiyat munosabatlari, psixologiya, geografiya va yana boshqa koʻplab jihatlarni qamrab olgan maʼlumotlar berilgan.

Lugʻatda lotincha femina — ayol soʻzidan hosil boʻlgan atamalarning soʻz maqolasi berilgan, ammo termin mavqeida taqdim qilinmagan. Xuddi shunday holat “*ayol*” soʻzi bilan ham kuzatiladi. Bu soʻz ham lugʻatda termin mavqeida taqdim qilinmagan. Shunga qaramasdan, “*ayol*” soʻzi ishtirokida hosil boʻlgan monotermin va termin birikmalari (ayolning qarashi, ayolning bandligi va h.k.)ga bagʻishlangan soʻz maqolalari uchraydi. Shulardan 16 ta soʻz maqolasi toʻliq matnli, 8 tasi “*boʻsh*”. Demak, lugʻatda uchraydigan, atamalar va termin birikmalari hosil boʻlishiga asos boʻlgan bu til birliklari (femina — ayol)ga termin mavqei berilmagan. “*Gender*” soʻzi esa lugʻatda termin sifatida berilmagan. Shu soʻz asosida hosil boʻlgan 67 ta atama va termin birikmalari gender atamalari sifatida keltirilgan: ularning 38 tasi toʻliq matnli, 29 tasi “*boʻsh*” soʻz maqolalaridir.

Koʻrinib turibdiki, mualliflar termin mavqeini tushunishda turlicha fikrga ega. Bizningcha, lotincha femina va oʻzbekcha ayol til birliklarini ham genderotermin mavqei bilan taqdim etish, ularga tegishli soʻz maqolalarida izohlash lozim.

Soʻz maqolalari mundarijasi, yuqorida aytib oʻtilganidek, nafaqat terminologik, balki ensiklopedik xususiyatga ham ega. Chunki ularda



boshqa ijtimoiy fanlar, eng avvalo, ayollarga taalluqli ensiklopedik xususiyatlar ham mavjud. Ya'ni unda terminologik lug'at va terminologik-ensiklopedik lug'at belgilari uyg'unlashib ketgan. Bu jihatdan "Rus tilining stilistik ensiklopedik lug'ati" (Moskva, 2003), "Lingvodidaktik ensiklopedik lug'at"ga o'xshash. Lug'atning xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning nomlanishini o'zgartirish, ya'ni "ensiklopedik" so'zini qo'shishni taklif etgan bo'lar edik.

So'z maqolalari matnlari stilistikasi ilmiy bo'lganligi bois unda turlicha materiallar namoyon bo'lganligi sababli ilmiy uslubning ilmiy, ilmiy-ommabop, ilmiy-o'quv kabi uslubiy xususiyatlar uyg'unlashuvi kuzatiladi. Terminologik lug'atlar, odatda, faqat ilmiy usulning lingvistik va ekstralingvistik talablari asosida shakllantiriladi.

Shakllanish turi (atamalarning nomlanishi) har xil: bir so'zli, ikki so'zli, uch so'zli, ko'p so'zli. Masalan, gender, matriarxat; gender tahlili; ayollar ijtimoiy tarmoqlari; ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning har qanday ko'rinishini bartaraf etish haqidagi Konvensiya; hukumat xarakteriga ayollarning ta'siri; tilning siyosiy jihatdan batartib qo'llanishi bo'yicha tavsiyalar; ijtimoiy ish jarayoni va yakuniy natijalarning xilmaxilligi; ayollarga nisbatan zo'rlikni yo'qotish bo'yicha BMT deklaratsiyasi va h.k.

Atama va termin birliklari har qanday fanning terminologik asosini tashkil etadi. Yuqoridagi lug'atda ko'p sonli atamalar (6–9 til birligidan iborat)dan berilgan misollarda terminologik tushuncha anglashilavermaydi. Ulardan ayrimlari, bizningcha, yozma ko'rinishga ega, ularda "termin"ga qo'yiladigan qisqalik, kam so'zlilik, faqat ilmiylik kabi xususiyatlar "ko'rinmaydi". Shunga qaramasdan, lug'atdagi ko'pgina "uzun" termin-ifodalar atamaga nisbatan qo'yiladigan bir ma'noli, konkretlik yoki mavhumlik, aniqlik, obrazsizlik singari talablarga javob beradi. Demak, atama hosil bo'lishi me'yorlariga rioya qilingan holda tuzilgan ko'p so'zli atamalar (termin-ifodalar), (garchi, ularning leksik ko'p a'zozliligi "atama", "termin tizimi", "terminologiya" tushunchalari uchun "odatiy" bo'lmasa-da) terminlar hisoblanadi.

Lug'atda berilgan ko'plab gender termin ifodalari, qoidaga ko'ra, harakatlar, forumlar, kongresslar, BMT hujjatlari, murojaatlarning nomlaridir. Gender termin-ifodalarining ko'p so'zlilik, gender tilshunosligining yangi yo'nalish ekanligi, uning hozircha mustaqil lingvistik yo'nalish sifatida to'liq shakllanmaganligi bilan ham bog'liq. Masalan, interferensiya atamasi lingvistik termin sifatida shakllanganicha shaxsning boshqa tildagi nutqida namoyon bo'ladigan xatolar turlicha talqin qilingan, ularning har biri termin mavqeiga da'vogar bo'lgan.

Hozirgi vaqtda interferensiya atamasi (nutqiy interferensiya) konkret va mavhum, aniq, tiniq va shaxs hamda jamiyatning boshqa tildagi nutqida uchraydigan noto'g'rilikning barcha ko'rinishlarini yaqqol ifodalaydi.

"Gender atamalari lug'ati"da shunday so'z birikmalari ham uchraydiki, ular termin mavqeida taqdim qilingan, bizningcha, ular atama emas yoki hali atama sifatida shakllanmagan. Masalan, lug'atning 200-betida "bevalarning o'ziga o't qo'yishi" so'z birikmasi termin sifatida taqdim etilgan. Bu "bo'sh", ya'ni "suitsidal xulqning gender spetsifikasi" so'z maqolasiga havola berilgan so'z maqolasidir (31, 200). "Bevalarning

o‘ziga o‘t qo‘yishi” so‘z birikmasini termin, deb atash to‘g‘rimi? Bizningcha, yo‘q. Sabablari:

birinchidan, nafaqat bevalar, balki boshqa ayollar ham o‘ziga o‘t qo‘yishlari mumkin;

ikkinchidan, salbiy mazmunga ega ifoda obrazliligi yaqqol ko‘rinib turibdi, atama esa obrasiz bo‘lishi kerak, chunki u ilmiy tushunchani aks ettiradi, ilmiy uslubning asosiy talablaridan biri — obrazlilik yo‘qligi;

uchinchidan, shunday bo‘lsa, o‘ziga o‘t qo‘yish bilan bog‘liq — erkaklarning o‘ziga o‘t qo‘yishi, siyosiy mahbuslarning o‘ziga o‘t qo‘yishi kabi so‘z birikmalarini ham atamalar qatoriga qo‘shish mumkin bo‘ladi.

Bizningcha, agar lug‘at mualliflari atama sifatida “ayollar suitsidi” ifodasini taklif etib, u orqali atamaning umumiy izohini berishganida va matn ichida bevalarning o‘ziga o‘t qo‘yishi holatlari to‘laqonli oilalardagi ayollarga nisbatan tez-tez uchrab turishini qo‘shib qo‘yishganida, bu so‘z birikmasi to‘laqonli termin hisoblanar edi, chunki unda aniqlik, konkretlik va abstraktlashuv (muayyan bir ayol emas, balki ayollar), obrazlilik yo‘qligi, ilmiylik, ikki xil ma‘no mavjud emasligi (bir ma‘nolilik) bor.

Lug‘at mundarijasidagi ayrim so‘zlarning terminga xosligi va leksik-semantikka oid boshqa so‘zlarning terminga xos emasligini keltirib chiqaradi. Masalan, amazonkalar, erga tekkanlik, qiz bolalik, ayollar kengashlari, mahkum ayollar lug‘atda termin mavqaida berilgan. Ayol, ayollik, qizlik, qariqiz esa termin sifatida talqin qilinmagan, ya‘ni bunday so‘z maqolalari yo‘q.

Qiz bolalik, erga tekkanlik, ayollar kengashlarini termin mavqaida ko‘rilishiga qo‘shilamiz, ammo shu tamoyilga amal qilinadigan bo‘lsa, yuqorida keltirilgan so‘zlar va so‘z birikmalari (ayol, ayollik, qizlik, qariqiz va h.k.) ham termin bo‘lishi joiz.

Lug‘atda “ayol” so‘z maqolasi bo‘lmasa-da, “ayol” so‘zidan tuzilgan, shu so‘z birinchi keladigan 21 ta so‘z maqolasi mavjud: ayol tarjimai holi, ayol identifikligi, ayollar adabiyoti, ayol ishchi kuchi, ayollar va xorijdagi gender tadqiqotlari, ayolning qarashi, ayol harakati va h.k. Demak, tushuncha va uning leksik ma‘nosi (ayol) lug‘atda termin mavqaida berilmagan, biroq ushbu til birligi asosida tuzilgan (ikki so‘zli va ko‘p so‘zli) so‘z birikmalari termin sifatida qayd etilgan. Bunda ma‘no bormi? Ha, bor, faqat paradoksli.

“Mahkuma ayollar” so‘z maqolasi kattagina, Rossiya ayollar koloniyalari ahvoli, soni, ulardagi asosiy kasalliklar ro‘yxatining batafsil mundarijasi berilgan. Agar bu gender atamasi bo‘lsa (bizda e‘tiroz yo‘q, lekin shubhalanish bor), “ayollar — mahkum qilinganlar”, “ayollar alkogolizmi”, “ayollar narkomaniyasi” kabi murakkab so‘zlar va so‘z birikmalari ham gender atamalari bo‘lishi lozim (31).

“Gender atamalari lug‘ati”ning “gender lingvistikasi” tushunchasi va atamalar shakllangan, ya‘ni gender haqidagi fanning ilmiy yo‘nalishlari nazariyasi shakllanishi uchun asoslar mavjud. Shuning uchun qator gender muammolari yechimi bugungi kunda munozaratalab yoki hal etilmagan.

### Xulosa

Gender tadqiqotlari lingvistikaning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 60-70-yillarida G‘arb davlatlarida, xususan, AQSh, Buyuk

Britaniya va Germaniyada yuzaga kelgan yangi ayollar harakati tufayli jadal rivojlana boshlagan. Natijada til ilmda feministik lingvistika bo'yicha qator ilmiy ishlar paydo bo'ldi: Block, 1979 (1); Kirilina, 1998 (23); Pauwels, 1998 (9); Fomin, 2003 (33).

XX asrning 90-yillarida G'arbda genderga bag'ishlangan ishlar hajmi sezilarli darajada ortdi, gender tadqiqotlari nazariyasi va amaliyoti nafaqat mazkur aspektda ishlab chiqildi, balki ataylab yoki anglashilmovchilik natijasida tengsizlik munosabatlarini qo'llab-quvvatlagan turli qarashlarga qarshi yo'naltirildi.

Gender tadqiqotlari asosini nafaqat anatomiya va biologiya sifatida namoyon bo'ladigan biologik jins, balki gender — jinsni uning biologik analogidan farqli ravishda ijtimoiy-madaniy tushunish ham tashkil qiladi. Genderning tilda aks etishi nominativ tizim, leksikon, sintaksis, tur toifasi va o'xshash obyektlar orqali namoyon bo'ladi. Gender lingvistikasi "gender" tushunchasining nafaqat lingvistika, balki psixolingvistika, lingvistika, psixologiya va sotsiologiya chegarasida mavjud bo'lgan fan doirasida namoyon bo'lishidir. Tilshunoslarning jins va gender masalalariga qiziqishi zamonaviy fanning umumiy tendensiyalari, xususan, uning antroposentrik yo'nalganligi bilan shartlanadi.

"Jins" va "gender" atamaları orasidagi farq va ularning ma'nolari zamonaviy gender tadqiqotlari uchun lingvistika va boshqa fanlarda signifikativdir. Jins odamlarning anatomik va fiziologik xususiyatlari yig'indisi hisoblanadi. Ushbu o'ziga xoslik asosida barcha insonlar ayol va erkak sifatida belgilanadi; sivilizatsiya taraqqiyotining sezilarli davrida jins ayol va erkak o'rtasidagi psixologik hamda ijtimoiy farqning poydevori va ilk sababi sanalgan.

Bugungi kunda psixologik va ijtimoiy farqlar "jins" tushunchasi emas, balki ijtimoiy konstrukt sifatida belgilangan, jinsning ijtimoiy-madaniy vazifalarini aniqlab beradigan, ularni biologik jinsdan ajratish imkonini beradigan terminologiyalashgan "gender" tushunchasi yordamida o'rganiladi.

"Gender" ingliz tilidan olingan, rus tiliga o'girilganda ("пол" — jins, "под" — tur) unga yuklangan ijtimoiy-madaniy ma'no yo'qoladi. Etimologik jihatdan bu so'z lotincha genus (tur) so'zi bilan bog'liq (7). Ko'rinib turibdiki, zamonaviy gender tadqiqotlarining ajralib turadigan jihati ularning fanlararo xususiyati va terminologik apparatning o'sib borish tendensiyasidir.

Gender atamalariga nisbatan atamalarning bunday yig'indisini terminosfera emas, balki terminosistema, deb atash ma'qul.

Terminosistema — tizimlashgan va turlangan muayyan soha terminlar yig'indisi. "Gender atamaları lug'ati"da ham xuddi shuni kuzatish mumkin.

Terminosfera til birligi terminosistemaga nisbatan kengroq tushuncha kasb etadi: terminosistema — o'z qobig'iga o'ralgan, yangi atamalar ham kirishi mumkin bo'lgan ochiq maydon. U ochiq maydon ekan, anchagina kengayishi mumkin. Masalan, gender terminosistemi o'z tarkibini kengaytirish imkoni bo'lsa-da, mutlaq ochiq hisoblanmaydi. Muhit til birligini biz shaxs faoliyati ijtimoiy sohasini aniqlashda uni imkon darajasida qo'llashimiz kerak:

1) gender terminosistemi;

2) gendrosfera: gender munosabatlari sohasi; gender sohasi.

Atama bir necha — semantik, sintaksik usullari hamda o‘zlashtirish natijasida hosil bo‘ladi. Bu jarayonlarda atama hosil bo‘lishining yanada aniqroq usullari kuzatiladi.

“Gender atamaları lug‘ati”da atamalar hosil bo‘lishi bilan bog‘liq asosiy usullar ishtirokini ko‘ramiz. Bular orasida o‘zlashtirish usuli, asosan, ingliz tilidan o‘zlashtirish yoki ingliz tili orqali hosil qilish ustunlik qiladi.

Gender sohasidagi terminologik apparatni tizimlashtirishga urinish rus til ilmidagi A. A. Denisova tahriri ostidagi “Gender atamaları lug‘ati” nashr qilinishi (31) bilan belgilanadi. Ushbu lug‘atni tahlil qilish gender atamaları va gender leksikasi o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda farqlarni aniqlash imkonini beradi. “Gender atamaları lug‘ati” tuzilishi gender lingvistikasi terminologiyasining gender leksikasi va gender haqidagi fanning ilmiy yo‘nalishlari asosida shakllanganligidan darak beradi.

Shunday qilib, gender atamaları shakllanishi asosida gender leksikasi falsafa, antropologiya, sosiologiya, psixologiya, siyosatshunoslik kabi ilmiy yo‘nalishlarga oid atamalar yotadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Block J.H. Personality development in males and females: The influence of differential socialization. Paper presented as part of the master Lecture Series at the meeting of the American Psychological Association. — NY, 1979.
2. Cabre M.T. Terminology: Theory, Methods, and Applications. — NY: John Benjamins Publishing, 1999. — 248 p.
3. Cameron D. Feminism and linguistic theory. — London, 1985. — 195 p.
4. Cameron Deborah. Language, Gender and Sexuality: Current Issues and New Directions // Applied linguistics. — 2005. — Volume 26, issue 4. — pp.482–502.
5. Connell R.W. The big picture: Masculinities in Recent World History // Theory & Society. — 1993. — № 22. — pp. 597–623.
6. Gayle R. The traffic in women: Notes on the «political economy» of sex // Toward an Anthropology of Women. — NY, 1975. — P. 157–210. — URL: <https://editions-ismael.com/wp-content/uploads/2017/09/1975-Gayle-Rubin-The-Traffic-in-Women-Notes-on-the-Political-Economy-of-Sex.pdf>
7. Gender (n). — URL: <https://www.etymonline.com/word/gender>
8. Lakoff R. Language and Woman’s Place // Language in Society. — 1973. — Vol. 2. — № 1. — pp. 45–80.
9. Pauwels A. Women Changing Language. London. — NY.: Longman, 1998. — 267 p.
10. Reinhart S. Feminist methods in social research. — NY.: Oxford Press, 1999. — 428 p.
11. Spender M. Man made language. Routledge and Kegan Paul. — London, 1985. — 274 p.
12. Words that last. — URL: <http://www.washingtonpost.com/wp-srv/special/national/words-that-last/>

13. Блохина Н.А. Понятие гендера: становление, основные концепции, представления. — Рязань: Поверенный, 2003. — 368 с.
14. Большой толковый словарь русского джаза. РАН. Институт лингвистических исследований. — Санкт-Петербург: НОРИНТ, 2002. — 36 с.
15. Вишнякова Ю.В. Гендерные аспекты славянской мифологии в контексте мифологических энциклопедических словарей // Гендер: язык, культура, коммуникация: материалы Третьей Международной конференции (27-28 ноября 2003 г.). — М.: МГЛУ, 2003. — С.31–32.
16. Воронина О., Клименкова Т. Гендер и культура: Феминизм и гендерные исследования. — Тверь: Тверской центр женской истории и гендерных исследований, 1999. — 172 с.
17. Гаранович М.В. Вариативность гендерных стереотипов в зависимости от социальных параметров говорящих: Автореф. дисс. на соиск. учен. канд. филол.наук. — Пермь: Пермский государственный университет, 2011. — 25 с.
18. Гидденс Э. Социология. — Москва: Едиториал УРСС, 2005. — 632 с.
19. Голубева С.С. Лингвистическая маркированность гендера как социокультурной категории // Вестник ЮУрГУ. — 2009. — № 25. — С. 4–10.
20. Городецкий Б.Ю., Раскин В.В. Термин с лингвистической точки зрения // Науч. симпозиум "Место терминологии в системе соврем. наук". 24-27 дек. 1969 г. — Москва: Изд-во Моск. ун-та, 1970. — С.134–141. — 247 с.
21. Григорян А.А. Состояние и перспективы гендерной лингвистики на западе в конце XX – начале XXI веков: Автореф. дисс. на соиск. учен. канд. филол.наук Спец.10.02.19. — Волгоград: Волгоград. гос. пед. ун-т., 2004. — 29 с.
22. Зиновьева Е. С. Предпосылки становления гендерной лингвистики // Ярославский педагогический вестник. — 2014. — № 3. — pp. 158–162.
23. Кирилина А.В. Гендерные стереотипы в языке // Женщина Плюс... — 2003. — №1. — URL: [http://www.owl.ru/win/womplus/2003/01\\_06.htm](http://www.owl.ru/win/womplus/2003/01_06.htm)
24. Кирова А.Г. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Вестник ТГПУ. — 2009. — № 8 (86). — С. 138–140.
25. Комлев Н.Г. Словарь новых иностранных слов: с переводом, этимологией и толкованием. — Изд-во Московского университета, 1995. — 142 с.
26. Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: курс лекций. — М.: Гнозис, 2002. — 284 с.
27. Нихонго М. Элементарный курс японского языка (I). Перевод и грамматический комментарий для лиц, говорящих по-русски. — Токио: 3A Corporation, 2014. — 180 с.
28. Потапов В.В. Современное состояние гендерных исследований в англоязычных странах // Гендер как интрига познания. — 2002. — С. 78–89.



29. Рябов О.В. Национальная идентичность: Гендерный аспект. На материале русской историософии: дис. ... д-ра филос. наук. — Иваново, 2000. — 492 с.
30. Скачкова И.И. Гендерная проблематика в зарубежном теоретическом языкознании: к истории вопроса // Теория и методология гендерных исследований. — Вестник ТГЮЭУ. — 2009. — № 4. — С.119–130.
31. Словарь гендерных терминов. Редактор кандидат филологических наук А.А. Денисова. — М.: Информация XXI век, 2002. — 256 с.
32. Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология: вопросы теории. — М.: ЛИБРОКОМ, 2012. — 248 с.
33. Фомин А. Г. Психолингвистическая концепция моделирования гендерной языковой личности. — Москва – Кемерово, 2003. — 236 с.

### References

1. Block J.H. Personality development in males and females: The influence of differential socialization. Paper presented as part of the master Lecture Series at the meeting of the American Psychological Association, NY, 1979. (in English)
2. Cabre M.T. Terminology: Theory, Methods, and Applications, NY: John Benjamins Publishing, 1999, 248 p. (in English)
3. Cameron D. Feminism and linguistic theory, London, 1985, 195 p. (in English)
4. Cameron Deborah. *Applied linguistics*, 2005, Volume 26, issue 4, pp.482–502. (in English)
5. Connell R.W. *Theory & Society*, 1993, № 22, pp. 597–623. (in English)
6. Gayle R. Toward an Anthropology of Women, NY, 1975, P. 157–210, available at: <https://editions-ismael.com/wp-content/uploads/2017/09/1975-Gayle-Rubin-The-Traffic-in-Women-Notes-on-the-Political-Economy-of-Sex.pdf> (in English)
7. Gender (n), available at: <https://www.etymonline.com/word/gender> (in English)
8. Lakoff R. *Language in Society*, 1973, Vol. 2, № 1, pp. 45–80. (in English)
9. Pauwels A. Women Changing Language. London, NY.: Longman, 1998, 267 p. (in English)
10. Reinhart S. Feminist methods in social research, NY.: Oxford Press, 1999, 428 p. (in English)
11. Spender M. Man made language. Routledge and Kegan Paul, London, 1985, 274 p. (in English)
12. Words that last, available at: <http://www.washingtonpost.com/wp-srv/special/national/words-that-last/> (in English)
13. Blokhina N.A. *Ponyatie gendera: stanovlenie, osnovnye kontseptsii, predstavleniya* (The concept of gender: formation, basic concepts, representations), Ryazan': Poverennyi, 2003, 368 p. (in Russian)
14. *Bol'shoi tolkovyi slovar' russkogo dzhaza*. RAN. Institut lingvisticheskikh issledovaniy (The Great explanatory dictionary of Russian

- jazz. RAS. Institute of Linguistic Research), Saint Petersburg: NORINT, 2002, 36 p. (in Russian)
15. Vishnyakova Yu.V. *Gendernye aspekty slavyanskoj mifologii v kontekste mifologicheskikh entsiklopedicheskikh slovarj* (Gender aspects of Slavic mythology in the context of mythological encyclopedic dictionaries), Gender: language, culture, communication: proceedings of the Third International Conference, Moscow: MGLU, 2003 (November 27-28), pp. 31–32. (in Russian)
  16. Voronina O., Klimenkova T. *Gender i kul'tura: Feminizm i gendernye issledovaniya* (Gender and Culture: Feminism and Gender Studies), Tver': Tverskoi tsentr zhenskoi istorii i gendernyx issledovaniy, 1999, 172 p. (in Russian)
  17. Garanovich M.V. *Variativnost' gendernyx stereotipov v zavisimosti ot sotsial'nykh parametrov govoryashchikh* (The variability of gender stereotypes depending on the social parameters of the speakers), extended abstract of candidate's thesis, Perm': Permskii gosudarstvennyi universitet, 2011, 25 p. (in Russian)
  18. Giddens E. *Sotsiologiya* (Sociology), Moscow: Editorial URSS, 2005, 632 p. (in Russian)
  19. Golubeva S.S. *Vestnik YuUrGU*, 2009, No 25, pp. 4–10. (in Russian)
  20. Gorodetskii B.Yu., Raskin V.V. *Nauch. simpozium "Mesto terminologii v sisteme sovrem. nauk"*, 24-27 December, 1969, Moscow: Izd-vo Mosk. un-ta, 1970, pp.134–141, 247 p. (in Russian)
  21. Grigoryan A.A. *Sostoyanie i perspektivy gendernoi lingvistiki na zapade v kontse XX – nachale XXI vekov* (The state and prospects of gender linguistics in the West in the late XX – early XXI centuries), extended abstract of candidate's thesis, Volgograd: Volgograd. gos. ped. un-t., 2004, 29 p. (in Russian)
  22. Zinov'eva E. S. *Yaroslavskii pedagogicheskii vestnik*, 2014, No. 3, pp. 158–162. (in Russian)
  23. Kirilina A.V. *Zhenshchina Plyus...*, 2003, No. 1, available at: [http://www.owl.ru/win/womplus/2003/01\\_06.htm](http://www.owl.ru/win/womplus/2003/01_06.htm)
  24. Kirova A.G. *Vestnik TGPU*, 2009, No. 8 (86), pp. 138–140. (in Russian)
  25. Komlev N.G. *Slovar' novykh inostrannykh slov: s perevodom, etimologiej i tolkovaniem* (Dictionary of new foreign words: with translation, etymology and interpretation), Moscow: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1995, 142 p. (in Russian)
  26. Krasnykh V.V. *Etnopsixholingvistika i lingvokul'turologiya: kurs lektsii* (Ethnopsycholinguistics and linguoculturology: a course of lectures), Moscow: Gnozis, 2002, 284 p. (in Russian)
  27. Nihongo M. *Elementarnyi kurs yaponskogo yazyka (I). Perevod i grammaticheskii kommentarii dlya lits, govoryashchikh po-russki* (Elementary Japanese Language Course (I). Translation and grammatical commentary for Russian speakers), Tokyo: 3A Corporation, 2014, 180 p.
  28. Potapov V.V. *Gender kak intriga poznaniya*, 2002, pp. 78–89. (in Russian)
  29. Ryabov O.V. *Natsional'naya identichnost': Gendernyi aspekt. Na materiale russkoi istoriosofii* (National identity: The gender aspect. Based

- on the material of Russian historiosophy): Doctor's thesis, Ivanovo, 2000, 492 p. (in Russian)
30. Skachkova I.I. *Vestnik TGYueU*, 2009, No. 4, pp.119–130. (in Russian)
31. *Slovar' gendernykh terminov. Redaktor kandidat filologicheskikh nauk A.A. Denisova* (Dictionary of gender terms. Editor Candidate of Philological Sciences A.A. Denisova), Moscow: Informatsiya XXI vek, 2002, 256 p. (in Russian)
32. Superanskaya A.V., Podol'skaya N.V., Vasil'eva N.V. *Obshchaya terminologiya: voprosy teorii* (General terminology: questions of theory), Moscow: LIBROKOM, 2012, 248 p. (in Russian)
33. Fomin A. G. *Psikholingvisticheskaya kontseptsiya modelirovaniya gendernoi yazykovoï lichnosti* (The psycholinguistic concept of modeling a gender linguistic personality), Moscow – Kemerovo, 2003, 236 p. (in Russian)